



O'ZBEK VA INGLIZ MULOQOT MADANIYATIDA SAMIMIYLIK.

Mirzakamolova Sadoqatxon Sayidaxmadovna

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

sadoqatxonmirzakamolova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada insonning botiniy go'zalligi va axloqiy fazilatlarini o'rtasidagi bog'liqlik, jumladan, «Avesto»dagi ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal tamoyillari asosida tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy qismi nutq madaniyati va nutqiy odat tushunchalarining farqlanishiga bag'ishlangan bo'lib, B. N. Golovin va Sh. Iskandarova qarashlariga tayangan holda, ushbu ikki tushuncha mohiyati ochib beriladi. Tadqiqotda o'zbek va ingliz xalqlariga xos samimiyligni ifodalovchi nutqiy odat birliklari — salomlashish, xayrlashish, uzr so'rash, iltimos bildirish va erkalash vaziyatlaridagi qoliplashgan iboralar — qiyosiy-chog'ishtirma aspektida o'rganiladi. Tahlil badiiy asarlardan (U.M.Tekkerey, O'.Hoshimov) olingan misollar bilan dalillanadi va ikki madaniyatning milliy-mental xususiyatlari ochib beriladi. Xulosa qismida samimiylig kundalik muloqotning muhim sharti va kommunikatsiyaning etik negizi sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: *botiniy go'zallik, axloqiy fazilat, ezgu fikr-so'z-amal, nutq madaniyati, nutqiy odat, samimiylig konsepti, muloqot madaniyati, o'zbek va ingliz tillari, qiyosiy-chog'ishtirma tahlil, milliy-mental xususiyat, kommunikativ sifatlar*

KIRISH

Ma'lumki, insonning botiniy go'zalligi bevosita axloqiy fazilatlar va axloqiy munosabatlar bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Chunki axloq, avvalo, ijtimoiy-ma'naviy hodisa sifatida uning kamolotida muhim ahamiyatga ega.

Ezgulikning go'zallik bilan qiyosiy tahlili borasida ilmiy manbalarda ko'plab fikrlar uchraydi. Jumladan, «Avesto»da insoniy go'zallikning uch muhim asosi – ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal to'g'risida gapiriladi. Zardushtiylik ta'limotining axloqiy-estetik mohiyatini tashkil etuvchi mazkur uch asos ayni paytda inson xulqiy go'zalligining mohiyati hamdir. Demak, so'z, fikr, niyat, amal insonning axloqiy-estetik faoliyatida hamda xulqiy go'zallikka erishish yo'lidagi maqsad va intilishlariga asos bo'ladigan, insonni to'g'ri faoliyatga undaydigan ma'naviy omillardir.

Muloqot madaniyatiga ta'rif berishdan oldin, avvalo, nutqiy odat tushunchasini nutq madaniyati tushunchasidan farqlash zarur. Garchi ular orasida o'xshashliklar bo'lsa-da, bu ikki tushuncha bir xil emas. Nutq madaniyati ancha keng tushuncha bo'lib nutqiy odat uning tarkibiga kiradi. B. N. Golovinning talqini bo'yicha, nutq madaniyati – bu asosan nutqning kommunikativ mukammalligi haqida aytish mumkin bo'lgan belgi va xossalari yig'indisi va sistemasidir. Nutq madaniyatida uning aniqligi, sofliqi, mantiqiyliqi, ifodaliligi, ta'sirchanligi va boshqa bir qator shu kabi sifatlar mavjud. Garchi bu sifatlar nutqiy odatda ham zarur



bo'lsa-da, uning birliklari takrorlanuvchan, bir zaylda, barqaror ekani bilan xarakterlanadi. O'zbek tilshunosligida bu mavzu bo'yicha izlanish olib borgan Sh. Iskandarova nutqiy odatni nutq madaniyatidan farqlash lozimligini ta'kidlab, shunday yozadi: "Nutq madaniyati lisoniy bilim va malakalar yig'indisi bo'lsa, nutqiy odat ma'lum millat vakillarining atrof-muhit, sharoitlar, urf-odatlar ta'sirida shakllangan bo'ladi. Nutq madaniyatiga ega bo'lish uchun shaxs o'z fikrini to'g'ri, ifodali va ta'sirchan holda yetkazish mahoratiga, san'atiga ega bo'lmog'i talab qilinsa, nutqiy odat birliklarini o'rinli qo'llash uchun o'zaro muloqot ishtirokchilarining ma'lum mahoratga ega bo'lishi muhim emas. O'zbek va ingliz xalqiga xos samimiylilik ifodasini bildiruvchi shunday nutqiy odat birliklari borki, bu ular haqiqatdan ham shu xalqlarning madaniyatini, o'zligini bildirib turadi. Samimiylilik ifodasini bildiruvchi bir nechta vaziyatlarni quyida ko'rib chiqamiz.

Salomlashish vaziyatida:

Salom berish va hol-ahvol so'rash: "Assalomu aleykum!", "Keling, xush kelibsiz!", "Qadamlariga xasanot", "Yaxshimisiz?", "Sog'liklaringiz yaxshimi?"... Ingliz tilida: "Good morning/afternoon/evening!", "Welcome!", "How are you/ How do you do?"...

Alik olish va hol-ahvol so'rash: "Va aleykum assalom!", "Xushvaqt bo'ling!", "O'zlaridan so'rasak?", "O'zingiz salomatmisiz?"...

Ingliz tilida: "Good morning/afternoon/evening!", "How are you / How do you do?", "How about you?"...

Xayrlashish vaziyatida: "Xayr!", "Salomat bo'ling!", "Ko'rishguncha!", "Yaxshi boring/ Yaxshi qoling!"...

Ingliz tilida: "Bye!" "Goodbye!", "So long!", "Have a good day!"...

Uzr so'rash vaziyatida: "Uzr!", "Avf etasiz!", "Ma'zur tutasiz!", "Uzrimni qabul qiling!..."

Ingliz tilida: "Sorry!", "Please, forgive me!", "I hope, you excuse me!", "Please, accept my apologies!"...

Iltimos vaziyatida: "Iltimos!", "Malol kelmasa...", "Sizga og'irlik qilmasa...", "Xudo xayringizni bersin!"...

Ingliz tilida: "Please!", "If it's not too much trouble...", "If it doesn't burden you...", "May God bless you!"...

Erkalash vaziyatida: "Barakalla!", "Yashang!", "Baraka toping!", "Otangizga rahmat!", "Aylanay!", "O'rgilay!"...

Ingliz tilida: "Well done!", "Live long!", "My dear", "My darling"...

"Becky Sharp, here's a book for you. You mustn't leave without it. God bless you! / Beki Sharp bu yerda siz uchun kitob bor. Siz buni tashlab ketmasligingiz kerak. Xudo xayringizni bersin! (Thackeray W.M. Vanity Fair.).

Ingliz tilida muloqot davomidagi samimiylikni ifodalovchi God bless you iborasi iltimos (Xudo xayringizni bersin)ni ba'zan, hamsuhbatga nisbatan yaxshi niyatni bildirish uchun Xudo qo'llasin degan ma'noda ham keladi.

Barcha millatlar va elatlarda buva-buvijonlar, ota-ona, aka-singil va opa-uka o'rtasida ham go'daklarni, kichik yoshdagi bolalarni suyib erkalash, chiroyli so'zlar qo'llash, ularni





bag'riga olish ham erkalashning eng samimiy turlaridir. Ayniqsa, bolajon xalqimiz bolalarga boshqacha mehr ko'rsatadilar. Bolalar kichiklik paytida bo'talog'im, toychog'im, polaponim, qo'zichog'im kabi so'zlar bilan, bolalar ulg'ayib katta bo'lganlarida esa erkalashlar o'rniga "uying donga to'lsin", "o'zingdan ko'paygin", "orqamda qolgin", "baraka topgin", "xudo xayringni bersin", "o'zingdan ko'paygin" kabi duolar bilan samimiy suyib erkalaydilar. Ingliz tilida bolalarni erkalatish uchun ishlatiladigan so'zlar quyidagilar: my kid, my kitten, cutie, sweetie, baby, little one, pumpkin, sunshine, snuggle bug, darling...

Yuqoridagi samimiyligni aks ettiruvchi nutqiy odat birliklari o'zbek va ingliz xalqi madaniyatining milliy-mental xususiyatlarini ifodalaydi. Turli vaziyatlardagi xalqimizga xos samimiylilik, ochiqko'ngillik, xushmuomalalikni ifodalovchi nutq birliklari talaygina, ularni sanab tugatib bo'lmaydi. Misol tarzida ushbu badiiy asardan olingan parchaga e'tibor qarataylik.

– Endi, o'rgilay, – deb boshladi atlas ko'ylakli xotin, uzoq hol-ahvol so'rashganidan keyin, – agar taqdir qo'shgan bo'lsa qarindosh bo'larmiz, degan umidda eshigingizni supurgani keldik.

Oyim indamadi.

– Olib o'tiringlar, – dedi dasturxonga imo qilib. (O'.Hoshimov.Dunyoning ishlari.)

Parchadagi sovchi ayol(adresant)ning mezbon ayol(adresat)ga “o'rgilay” so'zi orqali samimiy murojaati nutqiy odat birligi hisoblanib, muloqotning samimiy bo'lishiga xizmat qilmoqda.”Eshigingizni supurgani keldik” iborasi faqatgina o'zbek milliy xarakterini ifodalovchi o'zbek milliy sovchilik an'anasiga xos nutqiy birlikdir. Adresatning “olinglar”, “olib o'tiringlar”, “ovqat(dasturxon)ga qaranglar” degan gaplari ham mehmon kutish odatiga ko'ra eng ko'p ishlatiladigan samimiyligni ifodalovchi nutqiy odat birligidir.

Ingliz madaniyatida ham kelgan mehmonni uyga taklif qilish ayniqsa, mehmonni kechki ovqatga taklif qilish samimiyligni anglatuvchi odatlardan hisoblanadi. Ammo o'zbek madaniyatidan farqli tomoni uyga kelgan mehmonga ovqatlanish paytida ortiqcha mulozamat ko'rsatilmaydi. Ortiqcha mulozamat mehmonni noqulay holatga tushirib qo'yishi mumkin.

– This young lady is your friend? Miss Sharp, I am very glad to see you. Come on, Joseph, walk down the stairs with Miss Sharp. Dinner is read. / Bu yosh xonim sening do'stingmi? Miss sharp, Sizni ko'rganimdan juda xursandman. Kelaqol, Jozeph, Miss Sharp bilan birga zinadan tushib kel. Kechki ovqat tayyor (W.M.Thackerey. Vanity fair).

Nutq madaniyatini egallash birinchi galda hozirgi o'zbek tili va uning mavjud ifoda vositalarini puxta o'zlashtirish, adabiy til me'yorlariga to'liq amal qilish kabi lisoniy omillarga; ikkinchidan, so'zlashganda muayyan axloq-odob me'yorlariga rioya etish, o'z va o'zgalar gapiga e'tiborli bo'lish, o'rinli so'zlash, tinglash, suhbatlashish, munozara madaniyatini bilish kabi ijtimoiy-ruhiy omillarga bog'liqdir.

Nutqning madaniyligini ta'minlaydigan to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, lug'aviy boylik, soflik, jo'yalilik kabi bir qator kommunikativ sifatlar mavjud. Ana shu omillarning barchasini o'zida mujassamlashtirgan nutq chinakam madaniy hisoblanadi. Har qanday nutqning asosiy maqsadi muayyan axborotni tinglovchi(o'quvchi)ga yetkazish, shu





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



yo'l bilan unga ta'sir qilishdan iborat bo'lib, mazkur sifatlarning jami nutqning ta'sirchanligini yuzaga keltiradi. Bizning tadqiqot ishimizda ko'rilayotgan samimiylik konsepti ham aynan nutqning madaniyligini ifodalovchi kommunikativ sifatlaridan sanalib, aynan uning ta'sir darajasiga ko'ra ifodaliligi, jo'yaliligi kabi sifatlariga juda yaqin.

XULOSA

Demak, samimiylik kundalik muloqotning asosiy sharti va prezumpsiyasi vazifasini bajaradi. Bu, o'z navbatida, kommunikasiyaning etik asoslarini o'z ichiga oladi va samimiylik talabiga hamda muloqot sifatining maksimal darajasiga rioya qilishga to'g'ri keladi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Hoshimov O'. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – B.156.
2. Husanov B, G'ulomov V. Muomala madaniyati. – Toshkent: Ta'lim, 2009. – B. 71.
3. Искандарова Ш.М. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Самарқанд, 1993. – Б. 12.
4. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldashev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: Cho'lpon, 2013. – B. 16.
5. Махмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009. – B. 32.
6. Головин Б.Н. Основы культуры речи. – М.: Выш. Шк., 1980. – С. 6-7.
7. Thackeray W.M. Vanity fair. – М.: Айрис пресс, 2008. – С.18.
8. Umirzaqova M. O'zbek onalarining farzandlarini o'zbekona erkalashlari // Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, – B. 24-25.